

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**XALILOVA NILUFARXON BAHROMOVNA**

**QO‘QON XONLIGI TARIXIGA DOIR MANBALARDAGI  
ANTROPONIMLARNING SOTSIOLINGVISTIK VA  
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qo‘qon – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Xalilova Nilufar Bahromovna**

Qo‘qon xonligi tarixiga doir manbalardagi antroponimlarning sotsiolingvistik va lingvokulturologik tadqiqi.....3

**Халилова Нилуфар Бахромовна**

Социолингвистическое и лингвокультурологическое изучение антропонимов в источниках по истории Кокандского ханства.....25

**Khalilova Nilufar Bahromovna**

Sociolinguistic and linguoculturological study of anthroponyms in sources on the history of the Kokand Khanate.....51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**XALILOVA NILUFARXON BAHROMOVNA**

**QO‘QON XONLIGI TARIXIGA DOIR MANBALARDAGI  
ANTROPONIMLARNING SOTSIOLINGVISTIK VA  
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qo‘qon – 2025**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil 3311 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qo‘qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Qo‘qon davlat pedagogika institutining veb-sayti ([www.kspi.uz](http://www.kspi.uz)) hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Uluqov Nosirjon Muhammadaliyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Azimov Inomjon Mamasodikovich,**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Xudoyberganov Ravshan Yusupovich,**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qo‘qon davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat\_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 150700, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23. Tel: (99873) 542-38-38; faks: (99873) 542-11-43; e-mail: [quqondpi@umail.uz](mailto:quqondpi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Qo‘qon davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150700, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23. Tel: (99890) 508-64-42; e-mail: [qdpi\\_arm@umail.uz](mailto:qdpi_arm@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi)

**M.X.Hakimov**

Ilmiy daraja beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, filol. f.d., professor

**A.X.To‘raxojayeva**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filol. f.n., dotsent

**D.M.Jamoliddinova**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, filol.f.d., (DSc) professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ilm-fanida xalq xotirasi, madaniyati, ma'naviyati, qolaversa, ijtimoiy turmush tarzining tarkibiy qismi bo'lgan ism, laqab, familiya, otatism, taxallus kabi antroponimik birliklar tilshunoslik, tarix, sotsiologiya, sotsiolingvistika, etnografiya, etnolingvistika, psixologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya fanlari uchun hamisha yetarli material bera olganligi bois, hozirda ham yangi tadqiqotlar uchun manba bo'lib kelmoqda. Bugungi kunga kelib antroponimlarni o'rganishga antropotsentrik, sotsiolingvistik, etnolingvistik, lingvokulturologik aspektlarda yondashuv rivojlanmoqda.

Dunyo onomastikasida antroponimik birliklarning leksik-semantik, xronologik, struktural, derivatsion jihatlari zamonaviy antropotsentrik paradigmadagi tadqiqotlarning markaziy muammolaridan biri sanaladi. Ayniqsa, tarixiy antroponimik birliklarni o'rganish tilning onomastik, xususan, antroponimik makroko'lami taraqqiyoti, milliy, shakliy, ma'noviy hamda vazifaviy takomilini kuzatish imkonini berishi nuqtayi nazaridan muhim ilmiy-nazariy va amaliy mohiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida, xususan, onomastikasida hozirga qadar antroponimik birliklarining lisoniy vazifalari, tarixiy-etimologik qatlamlari, nominatsion-motivatsion, lug'aviy asoslari, variantlari, shakllari, yasalish usullari va modellari tadqiq etilgan, biroq tarixiy antroponimlarni sotsiolingvistik va lingvokulturologik aspektlarda o'rganish dolzarb vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "... xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg'or fikrli olimlar va san'atkorlarning, davlat va jamoat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir"<sup>1</sup>. Mazkur fikrlar, albatta, o'zbek tilshunosligida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarga ham taalluqli. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar, ilm-fan sohasiga qaratilayotgan alohida e'tibor o'zbek tilshunosligi va uning boshqa sohalar bilan hamkorligida rivojlanib borayotgan sotsiolingvistika, lingvokulturologiya yo'nalishlari oldiga ham jahonning zamonaviy taraqqiyot tamoyillariga mos tadqiqotlar yaratish vazifasini qo'yimoqda. O'zbek tili tarixiy antroponimiyasining sotsiolingvistik, lingvokulturologik aspektlarda o'rganish ham ana shunday vazifalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019, 7 апрель. № 68 (7298).

“Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ma’lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligi, turkologiya, jumladan, o‘zbek tilshunosligida tarixiy antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy, motivatsion-nominatsion, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-etimologik qatlamlari tadqiq etilgan. Rus tilshunosligida antroponimlarga doir A.V.Superanskaya, M.M.Ginatulin, V.G.Naumov, N.V.Danilina, Y.Y.Gordovalarning dissertatsiyalari va boshqa tadqiqotlar<sup>2</sup> alohida mohiyatga ega.

O‘zbek tilshunosligida atoqli otlar tizimi, jumladan, antroponimlarning to‘plash, lug‘aviy-ma’noviy, struktural, etnografik-motivativ xususiyatlarini tadqiq etish E.Begmatov, N.Husanov, G‘.Sattorov, S.Rahimov, I.Xudoynazarov, R.Xudoyberganov kabi olimlar munosib hissa qo‘shishgan<sup>3</sup>. O‘zbek ismlarining imloviy va izohli lug‘atlari tuzilgan<sup>4</sup>. N.Husanov tomonidan XV asr o‘zbek yozma adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari monografik tadqiq etilgan<sup>5</sup>. So‘nggi yillarda N.A.Muminova tomonidan temuriylar davri antroponimiyasining leksik-semantik xususiyatlari o‘rganildi<sup>6</sup>, biroq antroponimlarning tarixiy va mintaqaviy, hududiy shakllari, jumladan, Qo‘qon xonligi tarixiy manbalari antroponimiyasi monografik tadqiq etilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘zbek tilshunosligi kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarildi.

---

<sup>2</sup>Суслова А.В., Суперанская А.В. О русских именах. – Лениздат, 1991. – 217 с.; Гинатулин М.М. К исследованию мотивации лексических единиц. – Алма-Ата, 1973. – 27 с.; Наумов В.Г. Явления мотивации в системе диалекта (лексикологический аспект). – Томск, 1985. – 17 с.; Данилина Н.В. Нижегородская антропонимия XIV-XVII веков. – Горький, 1986. – 24 с.; Гордова Ю.Ю. Лингвистические проблемы региональной ономастики в историческое перспективе (на материале Рязанской топонимии и антропонимии): Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – М., 2018. – 42 с.; Социолингвистический аспект имени собственного. – М., 1984; Вопросы ономастики. Вып. 2. – Алматы, 2004.

<sup>3</sup>Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 28 с.; Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 263 б.; Исmlарнинг сирли олами. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014. – 176 б.; Хусанов Н.А. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидagi антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент, 2000; Сатторов Ф. Ўзбек исmlарининг туркий қатлами: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фан. ном... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 26 б.; Худойберганаов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.

<sup>4</sup> Бегматов Э.А. Ўзбек исmlари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – 604 б.

<sup>5</sup> Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 22.

<sup>6</sup> Муминова Н.А. Темурийлар даври антропонимиясининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. – Қарши, 2021. – 144 б.

**Tadqiqotning maqsadi** Qo‘qon xonligi antroponimiyasining sotsiolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Qo‘qon xonligi tarixiy manbalaridagi antroponimik birliklarni to‘plash va tasniflash;

tarixiy antroponimik birliklarning lisoniy vazifalarini dalillar asosida yoritish;

ismlar va laqablarning milliy urf-odatlar, an‘analar, diniy e‘tiqodlar, ijtimoiy tabaqalar bilan bog‘liq sotsiolingvistik va lingvokulturologik jihatlarini ochib berish;

xon va xonzodalar ism hamda laqablarining leksik-semantik, nominatsion-motivatsion tahlili asosida sotsiolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlarini yoritish;

tarixiy laqablarning leksik-semantik, nominatsion-motivatsion jihatdan tasniflash;

tarixiy laqablarning ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy omillar bilan bog‘liq sotsiolingvistik va lingvokulturologik qirralarini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Qo‘qon xonligiga doir tarixiy manbalardan to‘plangan antroponimik birliklar olindi.

**Tadqiqotning predmetini** Qo‘qon xonligi tarixiy manbalaridagi tarixiy mintaqaviy antroponimlarning sotsiolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlarini yoritish tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvistik tavsiflash, lug‘aviy-ma‘noviy, qiyosiy-tarixiy, etimologik, struktural, statistik, tipologik-tasnifiy, sotsiolingvistik va lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

tarixiy antroponimlar qimmatli tarixiy, etnografik, etikaviy va estetik, diniy-mifologik ma‘lumotlarni ifodalashi, ularning o‘ziga xos lisoniy xususiyatlari va tarixiy asarlardagi nominativ, indikatorlik, milliy-madaniy, farqlash, mafkuraviy-siyosiy, genderologik vazifalari aniqlangan;

Qo‘qon xonligiga doir ismlar va laqablarning milliy urf-odatlar, an‘analar, diniy e‘tiqodlar, ijtimoiy tabaqalar bilan bog‘liq sotsiolingvistik va lingvokulturologik jihatlari ochib berilgan;

Qo‘qon xonlari va xonzodalarining ism hamda laqablarining milliy urf-odat, an‘ana, marosim, diniy e‘tiqod, mansab, lavozim, mashg‘ulot, kasb bilan bog‘liq nominatsion-motivatsion, lug‘aviy, tarixiy-etimologik asoslari, ma‘nolari, davr va mahalliy dialektlar bilan bog‘liq fonetik hamda leksik variantlari yoritilgan;

tarixiy laqablarning nominatsion-motivatsion, ma‘noviy, qiyosiy-tarixiy guruhlari, kelib chiqishi bilan bog‘liq milliy, mafkuraviy, sotsiolingvistik xususiyatlari ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

Qo‘qon xonligiga oid tarixiy manbalardagi antroponimlarning tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosa va talqinlar hozirgi o‘zbek tili onomastikasi, xususan, antroponimikasini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishi, tilshunoslikning til tarixi, leksikologiya, dialektologiya, so‘z yasalishi hamda sotsiolingvistika, lingvokulturologiya sohalarini bo‘yicha yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan.

Dissertatsiya materiallari o‘zbek tili tarixiy antroponimlari, xususan, ismlar, laqablar va taxalluslar lug‘atlarini tuzishda manba bo‘lishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tahlilga tortilgan materiallar o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda, xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosligi, metodologik mukammalligi, shuningdek, qo‘yilgan masalalarning aniqligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Dissertatsiya natijalari o‘zbek tili antroponimikasini tarixiy ismlar, laqablar va taxalluslarning lisoniy: leksik-semantik, struktural, derivatsion, uslubiy xususiyatlari haqidagi ilmiy qarashlar bilan boyitishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning materiallari, natija va xulosalari o‘zbek tili leksikologiyasi, til tarixiga oid darslik va qo‘llanmalar yozishda, oliy o‘quv yurtlarida antroponimika bo‘yicha maxsus kurslar, shuningdek, umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi ona tili darslarida atoqli otlar, tarix fanida Qo‘qon xonligiga doir mavzularni o‘rgatishda manba hamda material vazifasini bajaradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qo‘qon xonligiga oid tarixiy manbalardagi antroponimlarning tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

tarixiy antroponimlar qimmatli tarixiy, etnografik, etikaviy va estetik, diniy-mifologik ma‘lumotlarni ifodalashi, ularning o‘ziga xos lisoniy xususiyatlari va tarixiy asarlardagi nominativ, indikatorlik, milliy-madaniy, farqlash, mafkuraviy-siyosiy, genderologik vazifalarining aniqlanishiga oid faktik materiallardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilgan IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi innovatsion grant loyihasida o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori ma‘lumotlar bazasini yaratishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 21-noyabrdagi 04/1-3352 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, morfologik analizator ma‘lumotlar bazasi onomastik birliklarning til tizimidagi o‘rni, ularning lisoniy xususiyatlariga oid nazariy ma‘lumotlar bilan boyishiga erishilgan;

Qo‘qon xonligiga doir ismlar va laqablarning milliy urf-odatlar, an‘analar, diniy e‘tiqodlar, ijtimoiy tabaqalar bilan bog‘liq sotsiologik va lingvokulturologik xususiyatiga doir tahlillardan hamda tarixiy laqablarning nominatsion-motivatsion, ma‘noviy, qiyosiy-tarixiy jihatlaridan yaratilgan tasniflariga va ularning etimologik, milliy-mafkuraviy, sotsiologik xususiyatlariga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida bajarilgan II-4721101717-raqamli “Xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada milliy nomlarning sotsiologik tadqiqi, atalish motivlariga ko‘ra turlari, nomlash qonuniyatlariga oid ma‘lumotlarni ilmiy umumlashtirishda foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini

o'qitish va malaka oshirish markazining 2024-yil 25-noyabrdagi 1661-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, interaktiv elektron platformaning atoqli otlarning til tizimidagi o'rni, ularning lisoniy xususiyatlariga oid nazariy ma'lumotlar bilan boyishiga erishilgan;

Qo'qon xonlari va xonzodalarining ism hamda laqablarining milliy urf-odat, an'ana, marosim, diniy e'tiqod, mansab, lavozim, mashg'ulot, kasb bilan bog'liq nominatsion-motivatsion, lug'aviy, tarixiy-etimologik asoslari, ma'nolari, davr va mahalliy dialektlar bilan bog'liq fonetik hamda leksik variantlariga doir ilmiy qarashlari hamda xulosalaridan 2023-2024-yillarda "O'zbekiston" Milliy teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlari ssenariysini yozishda va mazmunini boyitishda foydalanilgan. (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 14-noyabrdagi 26-36-922-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, radiodasturlarning ta'sirchanligi ortgan, mazmunan mukammallashgan, ilmiy dalillarga boyligi ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta (4 ta respublika hamda 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilova tarzida berilgan Qo'qon xonligiga oid manbalaridagi tarixiy antroponimlarning umumiy ro'yxatidan iborat bo'lib, 130 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning "Kirish" qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriylanishi, e'lon qilinganligi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tarixiy antroponimlarning funksional-semantik xususiyatlari**" nomli 1-bobida *tarixiy antroponim*, *antroponimiya* va uning manbalari, lisoniy vazifalari, sotsiolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari yoritilgan. Bobning 1-bo'limida "**Tarixnavislikda antroponimik birliklarning o'rni, qo'llanishi va lisoniy vazifalari**" izohlangan.

Har bir davrdagi mavjud etnik guruh, xalq va millat o'z antroponimiyasi – shaxsiy ismlar majmuyiga ega.

O'zbek tili tarixiy antroponimiyasi – xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot, yodgorliklar, tarixiy asarlarda saqlangan, qo'llangan va ular vositasida bizgacha yetib kelgan kishilarning atoqli otlari (ismlar, laqablar, taxalluslar)dir. O'zbek tarixiy antroponimiyasi deyarli tadqiq qilinganicha yo'q. Tarixiy yozma yodgorliklar, folklor asarlari, matnlari va boshqa manbalarda saqlanib qolgan antroponim materiallarini sinchiklab to'plash va o'rganish lozim<sup>7</sup>.

<sup>7</sup> Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 260.

O‘zbek tili tarixiy antroponimiyasi boy va qadimiy bo‘lib, quyidagi manbalarga ega:

**O‘zbek xalq og‘zaki ijodi (folklor) namunalari.** Bunga afsona, asotir, rivoyat, ertak, marsiya va doston kabi xalq og‘zaki ijodi asarlarida qo‘llangan kishi ismlari va laqablari mansubdir. M., *To‘maris, Shiroq, Boysari, Boybo‘ri* kabi.

**Tarixiy asarlar.** Bunga qadimgi turkiy, jumladan, o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixiga oid asarlarda qo‘llangan va ular vositasida bizgacha yetib kelgan ismlar, laqablar va taxalluslar kiradi. Qo‘qon xonligi doir Muhammad Hakimxonto‘raning “Muntaxab at-tavorix”, Avazmuhammad attor Xo‘qandiyning “Tarixi jahonnamoyi”, Mullo Shavqiyning “Jangnomayi Xudoyorxon”, Niyoz Muhammad Xo‘qandiyning “Tarixi Shohruxiy” (“Ibratul-xavoqin”) asarlari kabi. Masalan “Muntaxab at-tavorix” asarida *Irisqulibiy ibn Do‘stqul bahodir, Fozilbek ibn Norbo‘tabiy, Xonxoja ibn Yusuf Alixoja, Akmal Xo‘qandiy, Abdurahmon bahodir, Boybo‘ta bahodir qalmoq, Lashkar qo‘shbegi, Muhammadrahim devonbegi* kabi jami 192 ta tarixiy antroponimik birlik qo‘llangan.

**O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari.** Bunga Lutfiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy va boshqa shoirlarning asarlaridagi ism hamda laqablar mansubdir. M., *Mehr, Suhayl, Farhod, Shirin, Xusrav, Layli, Majnun* kabi.

**Tazkiralalar.** Tazkirada turli asrlarda yashagan yoki muayyan bir davr shoirlarining hayoti va ijodi haqida turli tarzda ma‘lumotlar beriladi<sup>8</sup>. Shuningdek, shoirlarning ismi, laqabi va taxalluslari ham beriladi. M., Po‘latjon domulla Qayumovning “Tazkirayi Qayyumiy” asari 3 jild, 6 daftardan iborat bo‘lib, unda 324 nafar o‘zbek adabiyotining o‘rta asrlardan tortib to XX asrgacha yashab ijod etgan vakillari hayoti va ijodiga oid ma‘lumotlar jamlangan<sup>9</sup>.

Muhammad Hakimxon to‘raning “Muntaxab at-tavorix”, Avazmuhammad attor Xo‘qandiyning “Tarixi jahonnamoyi”, Mullo Shavqiy “Jangnomayi Xudoyorxon”, Niyoz Muhammad Xo‘qandiyning “Tarixi Shohruxiy” (“Ibratul-xavoqin”), Muhammadaziz ibn Muhammadrizo Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy”, Mirzo Olim Maxdum hojining “Tarixi Turkiston”, Is‘hoqxon Junaydulloxojja Ibratning “Tarixi Farg‘ona”, Xudoyorxon zodaning “Anjum at-tavorix” asarlari o‘zbek tili, xususan, Qo‘qon xonligi antroponimiyasining noyob tarixiy manbalaridir. Mazkur manbalarga mansub 1000 yaqin ism, otaism, laqab, taxallus, nisba, kabi tarixiy antroponimlar muhim noyob va qadimiy onomastik birlik sifatida quyidagi vazifalarni bajarishini aniqladik:

I. Muayyan shaxsni atash, ya‘ni nomlash bilan nominativ vazifa bajaradi. M., *Sharafnisooyim* – Abdullohbek mingning qizi, Qo‘qon xoni Abdurahimbiyning xotini. *Sharafnisooyim Erdonabek, Xurshid xonim va Zebunniso xonimning onasi.*(Ibr.xavoqin, 347)

*Is‘hoqxo‘jayi Kosoniy* – Xudoyorxon zamonida yashagan Farg‘ona sayyidlaridan. ... *Is‘hoqxo‘jayi Kosoniykim, o‘g‘li Sarimsoqxo‘jayi parvonachi barakatli sayyid Xudoyorxon jannatmakon davrida Farg‘ona sarbozlarining ikkinchi noiblik martabasiga yetgan edi, ...* (Ibr.xavoqin, 456)

II. O‘zi atayotgan shaxsni boshqa shunday shaxslardan farqlaydi, ya‘ni

<sup>8</sup> Низомова Ш. Ўзбек тили тахаллусларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. – Наманган, 2023.

<sup>9</sup> Пулатжон Домулла Қайюмий. – Тошкент, 1998. – 1-, 2-, 3-ж.

farqlash (differensiatsiya) vazifasini bajaradi. M., *Abdullohxon // Abdullohbek* – amir Umarxonning farzandi. “*Amir Umarxonni o‘g‘li Abdullohxonni Toshkentda to‘y qilishi (497-509) bayonida*” (Muntaxab at-tavorix”). Bundan ilgari amir al-muslimin arjumand o‘g‘li **Abdullohbek**ka kelin qilish uchun Qorategining shohi Abdulazizshoh huzuriga muhtarama qizini so‘rab, Zuhur devonbegini sovchilikka yuborgan edi. (Ibr.xavoqin, 423) *Abdullohxon (ar.)* – Allohning quli, bandasi.

*Abdurahmonxon* – Abdulkarimbiyning o‘g‘li. *Abdulkarimxondin keyin oning o‘g‘li Abdurahmonxon* otasi o‘rniga xon bo‘lub, to‘qqiz oy o‘tgandin so‘ngra, a‘yoni viloyat ittifoq aylab, Yormazorga eltib, Marg‘inonga hokim aylab, oning o‘rniga Erdonaxon Muhammadrahimxon o‘g‘lini xon ko‘taribdurlar. (T.Turkiston, 53) *Abdurahmon (ar.)* – mehribon va o‘ta mehrlining quli, ya‘ni Allohning quli degani.

III. O‘zi atayotgan shaxsga ishora qilishi bilan indikator (aniqlovchi, ko‘rsatkich) funksiyasini bajaradi. M., *Arslonbek // Arslonbek dodxoh* – amir Olimxon (1798-1810) hamda Umarxon davrida (1810-1822) yashagan davlat arkonlaridan. *Nihoyat, sayyid Alibekni qaytadan Toshkand taxti uzra hokim qilib va uning yonida Arslonbekni dovyurak jangchilardan iborat lashkar bilan qoldirish hamda amirning o‘zi Xo‘qand tomonga qaytishi yuzasidan qaror qabul qilindi.* (Muntaxab., 323) *Arslonbek* – (o‘z.) beklar avlodiga mansub bo‘lgan dovyurak bola.

*Bekmurodbiy* – Olimxon zamonidagi xonlik amirlaridan. *O‘sha kezlar Xo‘jand viloyatining egasiz qolganidan foydalangan Bobo devonbegi Bekmurodbiy bilan birga O‘ratepaning ko‘p sonli lashkarini ergashtirib, bu viloyatni qo‘lga kiritdi.* (Muntaxab., 276)

IV. Davlat, mavjud siyosiy tuzum mafkurasini va unga xos ruhni ifodalash bilan mafkuraviy funktsiya bajaradi. M., *Irisqulibek // Idrisqulbiy* – amir Olimxon va Umarxon davridagi beklardan. Beklar avlodiga mansubligi bilan xonliklar davriga xos ruhni ifodalagan: Uning bekligi, *Ulardan birinchi bo‘lib Irisqulibek amir xizmatiga kirib, qullardek odob saqlab, tamalluq ila bosh egib, arz qildiki...*(Ibr.xavoqin, 66) *Ayniqsa, Idrisqulbiy va Jum‘aboy Qiytoqiy saltanatning olamni yorituvchi quyoshini hiyla va makr etagi bilan so‘ndirish va podshoh qonini nohaq to‘kish fursatini poylab yurardilar.*(Muntaxab., 321)

*Olimxon // Olim Muhammad Bahodirxon // Olimxon ibn Norbo‘tabiy* – 1798-1810-yillarda Qo‘qon xoni. Norbo‘tabiyning o‘g‘li, amir Umarxonning akasi. *Farg‘ona mamlakatida qo‘zg‘algan bir necha kunlik fitna va buzg‘unchilik hamda podshoh said amir Olim Muhammad Bahodirxonning yog‘iy bo‘lgan amirlar isyon...* (Muntaxab., 303) *Olimxon (ar.)* – bilimli, bilimdon, donishmand.

Ism kontekstda shaxsning mansabi, ya‘ni xonligi, xonliklar davriga mansub amaldorligi, biylar // beklar avlodiga mansubligi kabi ma‘lumotlarni ifodalagan.

V. Antroponimlar shaxsning jinsiy mansubligini ifodalash bilan genderologik funktsiya bajaradi. Ismning lug‘aviy asosi, tarkibidagi antroponimik indikatorlar shaxsning jinsini yorqin ifodalaydi. M., *Shohruxbek* – Qo‘qon xoni Olimxonning farzandi; *Haydarbek, Sarimsoqbek va Kattabek* – Shohruxbekning o‘g‘illari: *Shohruxbek padari buzrukvorining fojiali voqeasidan so‘ng andak fursat o‘tmasdan isyonchi amirlar sa‘y va harakatlari bilan o‘n sakkiz yoshida shahidlik izzatiga yetdi. Undan ham uchta farrux siyratli o‘g‘il: Haydarbek, Sarimsoqbek va Kattabek hamda bir qiz qolgan edi.* (Ibr.xavoqin, 404)

Mazkur antroponimik birliklarning lug‘aviy asosi va ular tarkibidagi unvon ifodalovchi *bek* indikator shaxslarning erkakligini ifodalaydi.

*Zebunnisooyim // Zebunniso xonim* – Qo‘qon xoni Abdurahimxonning qizi. Ismning lug‘aviy asosi – *zebi* apellativi, *niso*, *xonim*, *oyim* indikatorlari shaxsning ayolligini anglatadi.

VI. Antroponimlar turkiylar, jumladan, o‘zbek xalqi lingvomadaniyatiga xos ism qo‘yish bilan bog‘liq an‘analar, urf-odatlar va udumlarini ifodalashi bilan milliy-madaniy funktsiya bajaradi. M., *Tojiniso* – Qo‘qon xonligi asoschisi Shohruxbiyning xotini. Abdurahimxon, Abdulkarimxon va Shodibeklarning onasi. *Nikohida faqat o‘g‘illarining onasi Tojiniso degan ayol bo‘lgan.* (Ibr.xavoqin, 343)

Xolli, xoldor tug‘ilgan qizlarga *Xolposhsha*, *Xolida*, *Tojiniso* deb ism qo‘yilgan. *Tojiniso* antroponimi *xolli*, *xoldor qiz* ma‘nosini anglatadi<sup>10</sup>.

*Naqibxo‘ja* – Narboturning qiz tomondan nabirasi. Ism *nabi* va *xo‘ja* so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, *xo‘jalar avlodiga mansub oqsoqol, boshliq, yo‘lboshchi; urug‘(qabila) rahbari, e‘tiborli, ulug‘ bola* ma‘nosini ifodalaydi.

VII. Antroponimlar tarix, davr, ota-bobolar, avlod-ajdodlar bilan o‘zaro va zamonlararo aloqani ifodalashi hamda shaxslararo muloqotda faol qo‘llanishi bilan kommunikativ funktsiya bajaradi. M., *Sulton Sayyid Muhammad ibn Mallaxon* (1863-1865-yillarda Qo‘qon xoni), *Sotiboldi dodxoh Qosimbek otaliq o‘g‘li* (Sheralixon davrida yashagan sarkardalardan, Isfara hokimi) kabi.

Bobning 2-bo‘limida “**Qo‘qon xonligi davri tarixiy antroponimiyasining o‘ziga xos sotsiologik va lingvokulturologik xususiyatlari**” yoritilgan. E.Begmatov o‘zbek tilshunosligida birinchi marta antroponimiyani tadqiq qilishning sotsiologik aspektlarini nazariy jihatdan yoritdi, bunday tadqiqotlarda tadqiq etilishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab berdi<sup>11</sup>. Biz ham Qo‘qon xonligi antroponimiyasining sotsiologik xususiyatlarini yoritishda olimning nazariy fikrlari va talqinlariga asoslandik.

Qo‘qon xonligi davri antroponimiyasining sotsiologik xususiyatlari quyidagilarda yorqin ko‘rinadi:

1. Xonlik davri antroponimiyasi turkiy, jumladan, o‘zbek antroponimiyasiga xos totemistik va animistik qarashlar asosida yuzaga kelgan.

2. Ismlarda o‘zbek xalqining etnik udumlari, an‘analari yorqin ko‘rinadi.

Tarixiy antroponimlar zamonaviy antroponimlardan leksik-semantik, struktural, yasaliq, qo‘llanish xususiyatlariga ko‘ra farqlangan. Ana shunday jihatlardan biri o‘tmishda familiya bo‘lmagan. Ularning vazifasini ismlar tarkibida qo‘llanuvchi kishining ijtimoiy, tabaqaviy, etnik mansubligini, lavozimi, mansabi, kasb-kori, hunarini ifodalovchi lug‘aviy birliklar bajargan. Tarixiy antroponimlar, jumladan, Qo‘qon xonligiga doir kishi ismlariga ana shunday *to‘ra, eshon, xo‘ja, sayid, bek, begim, sulton* kabi tabaqa, lavozim, mansab ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy terminlar qo‘shib aytilgan.

O‘rta Osiyoga islom dini kirib kelgandan so‘ng jamiyatda ijtimoiy tabaqalar tarkibi bir muncha kengaygan. Oliy tabaqa vakillari *sayyidlar, xo‘jalar, to‘ralar, amir // mir* hamda *beklar* hisoblangan. Boshqa xonliklar qatori Qo‘qon xonligida

<sup>10</sup> Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 414.

<sup>11</sup> Бегматов Э. Антропонимиянинг тадқиқ қилишнинг социолінгвистик аспекти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011. – №4. – Б. 43-49.

ham mazkur tabaqalanish tarixiy antroponimik birliklarda o'z ifodasini topgan. M., *Sayyid Sultonxon, Mahmudxonxoja, Jahongirxo'ja, Sayyid Ali bek, Sayyid Sulton Jaloliddin, Eshon Mavlaviy, Eshon To'ra o'vroqi kalon, Xoja Xurd, Xo'jajonxo'ja* (Muntaxab., 323) kabi.

Qo'qon xonligida sayyidlar avlodiga mansub hukmdorlar *to'ralar* deb atalgan. Sayyidlar avlodida to'ralar oliy sulukka mansublikni ifodalagan. M., *Sayyid Jahongirxoja* (Muntaxab., 435), *Bahodirxoja dasturxonchi* (Muntaxab., 353), *Eshonto'ra o'roqi kalon* (Muntaxab., 375), *To'raxojayi xojakalon* (Ibr.xavoqin, 215), *Sultonxojayi xojakalon, To'rajonto'ra ibn Sayyid G'ozixonto'ra* (Ibr.xavoqin, 334), *Mahmudxonto'ra* (T.Turkiston, 88), *Hakimxonto'ra, Ma'sumxonto'ra* (Ibr.xavoqin, 119), *Sayyid Akramxon to'ra ibn Sobirxon to'ra* (Ibr.xavoqin, 334), *Valixon to'ra* (T.Aziziy, 26) kabi.

*Shoh, hukmdor, podshoh* ma'nosini anglatuvchi *sulton* termini antroponimlar tarkibida ism egasining yuksak martabali, ulug'vor, toleyi porloq kishi ekanligidan dalolat beradi. Ba'zi ismlarda hazrati Sulton (Ahmad Yassaviy) qabrini yoki boshqa *muqaddas qadamjoylarni ziyorat qilgach tug'ilgan bola, ya'ni sultoning tuhfası, ehsoni* ma'nolarini ifoda etadi<sup>12</sup>.

Xonliklarda, umuman, tarixda davlat boshliqlari, shahzodalar ismiga *sulton* so'zi qo'shib aytilgan. M., *Ul dilband farzandning nomi va laqabiga Sulton Mahmudxonı valine'mat ismi munosib ko'rildi*<sup>13</sup>. *Sulton Mahmudxon ibn Umarxon* – Qo'qon xoni Amir Umarxon va shoira Nodiraning o'g'li, Muhammadalixonning ukasi.

*Sayid* (a. – *mustaqil; hukmdor; janob*) termini Muhammad payg'ambar avlodlariga mansub kishi; Muhammad payg'ambar avlodlarining faxriy unvonini bildiradi<sup>14</sup>. Bu termin tarixiy manbalarda *sayid* va *sayyid* variantlarida kuzatiladi.

3. Davr antroponimiyasida Qo'qon xonligi siyosati va mafkurasi muayyan darajada ifodalagan. Hukmdorlar ismi asosida hosil qilingan ism-laqablarda shaxslarning unvoni, mansabi va darajalarining ifoda etilganligi hamda bu jihatdan barcha hukmdorlar ism-laqablarining umumiylikka egaligi buni tasdiqlaydi. M., *Oltin Beshikdan Sulton Ilik* (manbalarda *Tangriyor // Xudoyor // Eloq sulton* nomlari bilan tilga olingan) *Sulton Ilikdan Sulton Xudoyor, Sulton Xudoyordan Abulqosim, Abulqosimdan Shaxmastbiy* (*Chamashbiy* variantida talaffuz qilinadi), *Shaxmastbiydan Shohruxbiy, Shohruxbiydan Rustambiy, Rustambiydan Hojibiy, Hojibiydan Ashurbiy, Ashurbiydan esa 1709-yilda Qo'qon xonligiga asos solgan Shohruxbiy ibn Ashurmuhammadbiy* tug'ilgan (Shunday qilib, Oltin beshik bilan ana shu Shohruxxon o'rtasida 10 pusht ajdod o'tdi, ya'ni 200 yil o'tgan)<sup>15</sup>.

Olimxon 1805-yil Qo'qon davlatini *xonlik*, o'zini esa *xon* deb e'lon qiladi. Undan keyingi hukmdorlar ismlari tarkibida *xon* unvonining qo'llanishi faollashgan: *Umarxon, Muhammadalixon, Sheralixon, Mallaxon va Xudoyorxon* kabi.

<sup>12</sup> Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 587.

<sup>13</sup> Муҳаммадҳақимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 374.

<sup>14</sup> Madvaliyev A. va boshqa. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: Sahnof, 2021. – B. 213-214.

<sup>15</sup> Ибратул хавокин / Ниёз Муҳаммад Хўқандий; (Таърихи Шаҳрухий): Худоёрхон авлодлари тарихи / Ш.Умаров. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – Б. 39.

Umarxon 1818-yilda amir al-mo‘minin oliy ma‘muriy va diniy unvonini oladi. Uning o‘limidan keyin (1822-yil) “xon” unvoni qayta tiklanadi. Demak, podsholarning ismlari uning qaysi xonadonga mansubligini hamda kimning farzandi ekanligini bildirishi bilan birga, ism tarkibidagi unvon xonlarning hukmronlik qilgan davrini ham o‘zida ifoda etgan.

4. Ism, laqab va taxalluslarda nominatorlar – xalqning istak-xohishlari, orzulari aks etgan.

5. Ismlarda, ayniqsa, laqab va taxalluslarda nom va shaxs orasidagi aloqa, “bog‘liqlik”, uyg‘unlik yorqin seziladi. Davrga xos antroponimlar: ism, laqab va taxalluslar o‘zi mansub shaxs bilan bog‘liq ijtimoiy, xususan, jinsiy, tabaqaviy, etnik, diniy mansublik jihatlari majmuyini ifodalashi bilan ensiklopedik ma‘no va mohiyatga ega.

Manbalarda Qo‘qon xonlari hamda xonzodalarining ismlari murakkab tuzilishga ega bo‘lib, ko‘pincha otasmi bilan yonma-yon keltiriladi. Qo‘qon xonligi tarixiy manbalariga tayangan holda, yana shuni ham aytib o‘tish joizki, hukmdorlarning ismlari tarkibida *Muhammad*, *Sayyid*, *Bahodir* birliklarining kelishi urf bo‘lgan: *sayyid amir Olim Muhammad Bahodirxon*, ya‘ni *Olimxon*, *sulton sayyid Muhammad ibn Mallaxon*, *amir sayyid Shermuhammad Ali Bahodirxon*, ya‘ni *Sheralixon*, *sayyid Muhammad Xudoyorxon ibn Sheralixon*, *sayyid Muhammad Nasriddinxon Xudoyorxon o‘g‘li* kabi.

Bu hukmdorlarni oddiy odamlardan farqlab turadi, ismga tantanavorlik, buyuklik, o‘zgacha joziba baxsh etadi. Bunday holat, tarixiy asarlarda, asosan, muallif ism egasini ilk marta tanishtirishida, asar boblari sarlavhalarida kuzatiladi. M., Asli kelib chiqishi xonzodalardan bo‘lgan Muhammadhakimxon to‘raning Qo‘qon tarixnavisligida eng mukammal asar deya e‘tirof etilgan “Muntaxab at-tavorix” asaridan quyidagi sarlavhani keltiramiz: “*Farg‘ona mamlakatida qo‘zg‘algan bir necha kunlik fitna va buzg‘unchilik hamda podshoh said amir Olim Muhammad Bahodirxonning yog‘iy bo‘lgan amirlar isyoni va buzg‘unchi qo‘shin da‘vosi oqibatida ularga nisbatan mehr-shafqatsizlik qilgani sababi va jin va insni yaratgan Egamga hamdlar bo‘lsin – ul maqsadiga yetmagan podshoh davlatining qulay boshlagani zikri*”<sup>16</sup>.

Bu holatni yana boshqacha qilib aytganda, tarixchi – shoir kitobxonga o‘z qahramonlarini tanitib olgunga qadar ularning ismlarni ism+laqab, ism+otasmi yoki ism+nisba holatida, ya‘ni murakkab tuzilishli holatda ifodalaydi.

6. Davr antroponimlari ijtimoiy-tarixiy jihatdan quyidagi qatlamlarga bo‘linadi:

Hukmron, oliy tabaqaga xos ism va laqablar.

Diniy tabaqaga xos ism va laqablar.

Oddiy mehnatkash tabaqaga xos ism va laqablar.

Qo‘qon xonligi davrida ham diniy va dunyoviy ilm ahli, ziyolilar tabaqasini xalq e‘zozlagan. Qo‘qonliklar o‘qimishli kishilarning ismi oldidan *mullo*, *mavlon*, *mavlaviy*, *hazrat*, *domla*, *domullo* kabi leksemalarni qo‘llagan.

Tarixiy antroponimlar bilan qo‘llanuvchi birliklar genderologik tabiatga ham ega bo‘lib, ularning qo‘llanishiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

<sup>16</sup> Мухаммадхакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 303.

1. Erkaklar ismiga qo‘shib qo‘llanuvchi birliklar: *sayid, eshon, bek, xo‘ja, amir* kabi.

2. Ayollar ismiga qo‘shib qo‘llanuvchi birliklar: *oyim, xonim, malika* kabi.

3. Erkak va ayollar ismiga qo‘shib qo‘llanuvchi birliklar: *begim* kabi.

*Begim* so‘zi *bek farzandi, beklar avlodiga mansub, bekszoda, shohzoda; hokim, hukmdor; podshohning xotini yoki qizi; malika, bekszoda; xonim, beka, oyim; yuksak martabali, aslzoda* kabi ma’nomlarni anglatadi. Ism tarkibida hurmat ma’nosini anglatadi<sup>17</sup>.

Davr antroponimiyasiga xos yana bir lingvokulturologik jihat **uyqash ismlarda** yorqin kuzatiladi.

Ismlarning uyqashligi deganda qo‘shimchalari (old qo‘shimcha va suffikslari) yoki qandaydir segmentlari mos keluvchi yoki oddiy qilib aytganda, bir-biriga ohangdosh, qofiyadosh ma’lum ismlar guruhi tushuniladi.

Qo‘qon xonligiga xos manbalarda ham uyqash ismlar guruhi uchraydi. Masalan, xonlik asoschisi bo‘lmish Shohruxbiyning o‘g‘illari, ya’ni *Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy* ismlarining uyqashligini *abdu va biy*, Xudoyorxonning qizlari *Ozodaxon, Mohzodaxon, Shahzodaxon* ismlarining uyqashligi *-zoda* antroponimik indikatorini vositasida yuzaga kelgan.

Qo‘qon xonligi antronimiyasiga xos ismlar uyqashligi zamonaviy holatdan ancha farqlanadi. Bu quyidagilarda ko‘rinadi:

I. Ismlar uyqashligi ismlar tarkibida faol qo‘llangan ijtimoiy tabaqa va guruhga mansublikni ifodalovchi so‘zlar, terminlar asosida ham yuzaga kelgan:

1. *Xo‘ja* tarkibli uyqash ismlar: **Yunusxo‘ja**, Yunusxo‘janing o‘g‘illari bo‘lgan *Sultonxo‘ja, Homidxo‘ja* – *Undan ikki o‘g‘il: Sultonxo‘ja va Homidxo‘ja qolgan. Sultonxo‘jasi otasi o‘rniga hukumat baxtiga yetdi.* (Ibr.xavoqin, 387) kabi.

2. *Said // sayyid* tarkibli uyqash ismlar: *Farg‘ona mamlakatida qo‘zg‘algan bir necha kunlik fitna va buzg‘unchilik hamda podshoh said amir Olim Muhammad Bahodirxonning yog‘iy bo‘lgan amirlar isyoni...* (Muntaxab., 303) **To‘rajonto‘ra ibn Sayyid G‘ozixonto‘ra** – Xudoyorxonning uchinchi o‘g‘li Sayyid Umarbekning tog‘asi, *Shahzoda Akbaralibek va shahzoda Sayyid Mavlonbek shahzoda Sayyid Sulton Murodbekning o‘g‘illari edilar.* (T.jahonnamoyi, 424) **Amir Sayyid Shermuhammad Ali Bahodirxon** va uning *saltanat taxtiga chiqib o‘tirgani hamda shahar qal‘asini qurdirgani zikri.* (T.jahonnamoyi, 20)

3. **To‘ra** tarkibli uyqash ismlar: **Buzurgxon to‘ra ibn Jahongirxon to‘ra ibn Solihxon to‘ra** ibn Sayyid Offoqxo‘ja o‘g‘li (1824-1877) – *Julusning to‘qqizinchi yili Buzurgxon to‘ra ibn Jahongirxon bir necha ming xo‘qandlik va qoshg‘arlik bilan Xo‘qanddan qochib Koshg‘arga kirib bordi.* (Ibr.xavoqin, 125) *Buxoro amirzodasi amir Shohmurod o‘g‘li, amir Haydarning ukasi Is‘hoqbek degan, Sultonxon to‘ra Ahroriy va Mahmudxon to‘ra Ahroriy, Ma‘sumxonto‘ra Maxdumi A‘zamiy* – *amir al-musliminning singlisi Oftobning eri, Xo‘ja kalon Maxzumi A‘zamiy, Eshonxon to‘raxon to‘ra, Jahongirxon to‘ra Sayyidofoqiy. Taxtga o‘tirishining o‘n birinchi yili o‘z birodari Olimxon qizini Mahmudxon to‘ra Ahroriyning o‘g‘li Sayyidxon to‘raga nikohlab berishdi.* (Ibr.xavoqin, 118)

II. Oliy tabaqaqa mansublikni ifodalovchi mansab, unvon nomlari asosida yuzaga kelgan. M., *xon* indikatorli uyqash ismlar: *Olimxon, Umarxon,*

<sup>17</sup> Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б.584.

*Muhammadalixon, Sulton Mahmudxon, Muhammadaminxon, Otaliqxon, Sheralixon, Mallaxon, Xudoyorxon; oyim indikatorli uyqash ismlar kabi.*

Dissertatsiyaning “**Xon va xonzodalar ism va laqablarining sotsiologik hamda lingvokulturologik tahlili**” nomli 2-bobida hukmdorlarning ifodalovchi antroponimik birliklarning ijtimoiy, milliy, madaniy omillar bilan bog‘liq jihatlarning lisoniy tahlili berilgan.

Bobning “**Qo‘qon xonligi hukmdorlari ism va laqablarining leksik-semantik tahlili**” nomli 1-bo‘limida 30 dan ziyod xonlarning ifodalovchi antroponimlarning leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, tarixiy-etimologik xususiyatlar yoritilgan.

Hukmdorlarning ismlari quyidagi lisoniy xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

1. Bu antroponimlar real shaxslarni, tarixda yashab o‘tgan, Qo‘qon xonligini muayyan muddat boshqargan hukmdorlarni ifodalaydi.

2. O‘zbek ismlarining nomlanish asosiga ko‘ra uchta katta guruhda tasnif qilish mumkin: bag‘ishlov ismlar, istak ismlar, tasviriy ismlar. Bu guruhlarga mansub barcha ismlarda asosiy motiv – bolani turli balo-qazolardan asrash va uning sog‘-omon ulg‘ayishini istash, tilash istagi, niyati yotadi<sup>18</sup>.

Qo‘qon xonlarining ismlarini nominatsion-motivatsion jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

Diniy-totemistik (bag‘ishlov ismlar). Farzandni biror ilohiy, muqaddas kuchning irodasi, ehsoni deb tushunish natijasida chaqaloqqa o‘sha taxmin qilingan, e‘tiqod etilgan narsalar nomi ism qilib berilishi natijasida bag‘ishlov ismlar guruhi paydo bo‘lgan. Bag‘ishlov ismlarda bolaning dunyoga kelishini turli ilohiy kuchlarga, diniy e‘tiqodlar, qadimiy udumlarga bog‘lab talqin qilish asosiy o‘rin tutadi. M., *Tangriyorxon, Xudoyorxon, Xudoyqul, Sulaymonxon, Sayidxon, Ibrohimxon, Nasriddinxon, Nasrulloxon, Muhammad Alixon* va b.

Istak ismlar. Bunday ismlarning asosiy mohiyatini ism beruvchilarning bolaga qaratilgan turli tilaklari tashkil qiladi. Bunda bolaning ulg‘ayib, yaxshi inson bo‘lib yetishishini xohlash asosiy o‘rin tutadi. M., *Rustambiy, Erdonabiy, Bobobek, Olimxon, Sheralixon, Po‘latxon* va b.

Tasviriy (tasvirlovchi) ismlar – bola dunyoga kelgan paytda yuz bergan xilma-xil tabiiy hodisalar, mo‘jizalar, chaqaloq badanida mavjud bo‘lgan notabiiy holatlar yoki bolaning ko‘rinishidagi ijobiy va salbiy jihatlarni ifoda etish ko‘zda tutilgan nomlar. Qayd qilingan jihatlarni ism orqali tasvirlash maqsadi bolani turli kasalliklarga yo‘liqishdan asrash, bevaqt o‘limdan himoya qilishdir. M., *Mallaxon, Norbo‘tabiy* va b.

3. Hukmdorlarni ifodalovchi nomlar tarkibiy tuzilishiga ko‘ra qo‘shma tarkibli antroponimlar guruhiga mansub *ism + unvon nomi* modelida shakllangan va qo‘llangan: *Shohruxbiy, Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy, Abdurahmonbiy* kabi.

Mazkur antroponimlar ma‘noviy jihatdan laqablar sirasiga mansubdir.

4. Hukmdorlarning laqablari tarkibidagi *biy, bek, xon* kabi tarixiy unvon nomlari sohibining unvoni, mansabi, xonlar avlodiga mansubligi kabi ensiklopedik axborotlarni ifodalagan hamda hukmdorlar ismlari turkumiga xos uyqashlikni ifodalagan.

---

<sup>18</sup> Кенжаева С.Э. Ўзбек тили антропонимларининг номинацион-мотивацион асослари ва тавсифи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. ... диссер. – Қарши, 2019. – Б. 150.

5. Hukmdorlarning ism-laqablari qo‘llanishida variantdorlik kuzatiladi. Bu, asosan, ism tarkibidagi unvon va mansab nomlarining variantdorligi bilan bog‘liq tarzda yuzaga kelgan.

6. Ayrim hukmdorlarning ismlari muayyan avlod vakillarining, ya‘ni akaukularning ifodalaganligiga ko‘ra uyqash (seriyali) ismlar hisoblanadi.

7. Bolaga o‘tmish ajdodlarning ismini qo‘yish orqali ularni hurmatlashgan hamda chaqaloqqa o‘tganlar ruhi “yor bo‘ladi”, “qo‘llab-quvvatlaydi”, deb ishonishgan. Ota-bobolarning ismini chaqaloqqa qo‘yishdan maqsad – bu bola kelajakda marhum qarindoshiga o‘xshasin, o‘sha kabi boy-badavlat yoki mard, botir, xushfe‘l, xushmuomala, mehnatsevar, tirishqoq, umuman, yaxshi inson bo‘lsin yoki adolatli podshoh bo‘sin, deb orzu qilishgan. Mana shunday ezgu maqsad va intilishlar zaminida o‘tmish ota-bobolarning nomi kishilar tasavvurida aziz, qadrli va xosiyatli ismlar hisoblangan. Bunday an‘ana Qo‘qon xonligi tarixida ham kuzatiladi. Buni xonlikda to‘rt nafar *Shohrux* ismli hukmronlar bo‘lganligi ham tasdiqlaydi: *Shohruxbiy I* (Shaxmastbiyning o‘g‘li), *Shohruxbiy II* (Shohruxbiy ibn Ashurmuhammadbiy), *Shohruxbiy III* (Qo‘qon xoni Norbo‘tabiyning ukasi), *Shohruxxon IV* (amir Olimxonning farzandi) kabi.

Mazkur bobning **“Xonzoda ayollar ism va laqablarining lingvokulturologik tahlili”** nomli 2-bo‘limida Qo‘qon xonligiga mansub ayollarni ifodalovchi antroponimlar tadqiqi berilgan.

O‘zbek tili antroponimiyasida ayrim ishlarni<sup>19</sup> e‘tiborga olmagan, tarixiy ayollarga xos ismlar maxsus to‘planmagan, monografik tadqiq etilmagan.

“Antroponimika jins kategoriyasiga befarq qaray olmaydi. Bu jihatdan u turdosh ot va atoqli otlarning boshqa tiplaridan ajralib turadi”<sup>20</sup>. Haqiqatdan, ko‘p ismlarda shaxsning jinsiy mansubligi aniq ifodalanadi. Bu jihat xonlik davri antroponimiyasida yorqin kuzatiladi.

Davr antroponimiyasida *oy* va uning *moh* sinonimi lug‘aviy asos bo‘lgan ayollar ismlari ko‘p uchraydi: *Oyimxon*, *Oychuchuk*, *Oyjonoyim*, *Mohlaroyim*, *Mohzodaxon* kabi. Bu turkumdagi ismlar lug‘aviy asosiga ko‘ra *go‘zallik va chiroyli ko‘rinish tushunchalarini ifodalovchi ismlar guruhiga mansubdir*<sup>21</sup>. Osmon jismlarini ifodalovchi so‘zlar lug‘aviy asos bo‘lgan ismlar yorug‘lik, ziyo tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lganligi bois ko‘proq ayollarga qo‘yiladi<sup>22</sup>. Albatta, bu fikrlar asosli. M., *Mohzodaxon* – Qo‘qon xoni Xudoyorxonning qizi. *Mohzoda* antroponimi fors-tojikcha *moh*, *zoda* va *xon* birliklari asosida shakllangan bo‘lib, *oy farzandi*, *go‘zallar nasliga mansub qiz* ma‘nosini anglatadi.

Bu davrga xos tarixiy antroponimlar tarkibida *oliynasab avlodga mansub, hurmatli, e‘zozli; taqvodor xonadonga mansub qiz, ayol* ma‘nolarini anglatuvchi<sup>23</sup> *oyim* antroponimik indikator faol qo‘llangan. M., *Mohlaroyim*, ya‘ni *Nodira* (Amir Umarxonning turmush o‘rtog‘i, mashhur o‘zbek shoirasi), *Mohlaroyim* (Qo‘qon xoni SHERALIXONNING qizi), *Oyjon oyim* (Qo‘qon xoni Abdurahimbiy va Oychuchuk oyimning qizi), *Oyimxon* (Qo‘qon xoni amir Olimxonning qizi),

<sup>19</sup> Хусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. – Тошкент: Navro‘z, 2014. – 244 б.

<sup>20</sup> Бегматов Э. Исмларда жинс тушунчасининг ифодаланиши // Ўзбек исмлари имлоси. – Тошкент, 1972. – Б. 365.

<sup>21</sup> Бегматов Э. Ўзбек исмлари изохи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 114.

<sup>22</sup> Мусаева Ф. Антропонимларда жинс тушунчасини ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – №3. – Б. 80.

<sup>23</sup> Бегматов Э. Юқоридаги луғат, 586-б.

*Norchuchukoyim* (Qo‘qon xoni Sheralixonning qizi). Shuningdek, tarixiy manbalarda xuddi shu modelda yasalgan *Oychuchukoyim* (Qo‘qon xoni Sheralixonning qizi), *oy+poshsho+xon* modelidagi *Oyposhshaxon* (amir Umarxonning kanizi. U *Xonposhshaxon* deb ham atalgan) kabi ismlar ham uchraydi. *Oyposhshaxon* antroponimi *oydek suluva va mo‘tabar, suyuqli qiz ma’nosini* ifodalagan.

Xonlikka xos antroponimlar turkumida *oftob* so‘zi lug‘aviy asos bo‘lgan ismlar ham bor: *Oftob // Oftoboyim* (Narboturning qizi, Qo‘qon xonlari Olimxon va Umarxonlarning singlisi) kabi. Mazkur ism *quyoshdek nurli; chaqnagan, nurafshon* ma’nolariga ega.

*So‘naoyim* – Sheralixonning xotini. Mazkur antroponim *so‘na* apellyativi va *oyim* indikatorlaridan tarkib topgan.

Eski o‘zbek tilida o‘rdakning makiyoni *bo‘rchin*, erkagi *so‘na* deb atalgan: *Dag‘i turk o‘rdakning erkagini “so‘na” va tishisin “bo‘rchin” der* (А.Навоий. Муҳокамат ул-луғатайин). Demak, antroponimga ana shu *so‘na* apellyativi lug‘aviy asos qilib olingan. *So‘naoyim* ismi *oq o‘rdakdek chiroyli oliynasab avlodga mansub, hurmatli, e‘zozli qiz ma’nosini* anglatadi.

Antroponimlarga xos variantdorlik R.Xudoyberganov tomonidan maxsus o‘rganilgan va o‘zbek antroponimiyasi variantlarga boyligi qayd etilgan<sup>24</sup>, biroq bu ishda ham ayollar ismlariga xos variantdorlik masalasi keng yoritilmagan.

Xonliklar davri antroponimiyasida ham fonetik, semantik variantdorlik kuzatiladi. Buni lahjalararo fonetik farqlanishlar, aynan bir saroy ayolini atashga turlicha yondashuvlar bilan izohlash mumkin. M., *Ag‘ochaoyim // Og‘achaoyim* (Xudoyorxonning xotini), *Yorqinoyim // Jarqinoy // Hokimoyim* (Hokimoyim nomi bilan shuhrat topgan Sheralixonning qirg‘iz xotini, Qo‘qon xoni Xudoyorxonning onasi) kabi. *Hokim (ar.)* – boshliq, hukmdor, yo‘lboshchi.

Qo‘qon xonligidagi ayollar qo‘sh nomga ega bo‘lib, ikkinchi nomlarining ba‘zilari ular mansub urug‘ nomi asosida hosil qilingan: *Oychuchuk oyim bint Ibrohim otaliq* (Qo‘qon xoni Abdurahimbiyning xotini, shahrisabzlik Ibrohim kenagasning qizi). U *Kenagas oyim* laqabi bilan ham mashhur bo‘lgan.

Mazkur bobning **“Qo‘qon xonligiga doir tarixiy manbalarga xos noyob ismlar xususida”** nomli 3-bo‘limida o‘zbek tilida kam uchraydigan, lug‘aviy va nominatsion-motivatsion asosi bilan alohidalik kasb etuvchi noyob ismlar tahlili berilgan.

Tilning imkoniyatlari keng va cheksiz, ajibliklarga to‘la. Bu tarixiy antroponimlar sirasida ham kuzatiladi. Antroponimikada tilda kam, siyrak uchraydigan ismlar *noyob yoki raritet ismlar* deb ataladi<sup>25</sup>.

Qo‘qon xonligiga doir tarixiy manbalarga xos tilda kam, siyrak uchraydigan yoki uchramaydigan, antroponimik lug‘atlarida berilmagan *Beko‘g‘libek, Boyshum, Gulmingboy, Jomador, Kinasarixon, Cho‘bin, Mirzod, Cho‘libek, Olishbiy, Oychuchuk, Qulika, Sulton Ilik, Tandi, Taqdirshoh, To‘rajonto‘ra, Yakkamehr, Shohmastbiy (Chamashbiy)/ Shohmast / Shamast, Shohpisand,*

<sup>24</sup> Худойберганов Р.Ю. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фан. ... ном. диссер. автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б

<sup>25</sup> Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1978. – С. 119.;

Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 50.

*Cho'tan* kabi antroponimlar uchraydi. Mazkur antroponimlarning har biri o'zining nominatsion-motivatsion, lug'aviy asosi, ma'nosi va tuzilish tarkibiga ega.

Bir necha antroponimlar aynan bir lug'aviy birlik, antroponimik indikator va ijtimoiy tabaqa ifodalovchi birliklar takrori asosida ohangdoshlik bilan yasalgan, hosil qilingan: *Beko'g'libek* (Olimxonning amakisi Hojibekning o'g'li), *To'rajonto'ra* (Xudoyorxonning uchinchi o'g'li Sayyid Umarbekning tog'asi. Mahram qal'asi hokimi) kabi. Antroponimlar tarkibidagi *bek*, *to'ra* lug'aviy birliklarining takrori ismlarga ohangdorlik baxsh etgan. Bu, albatta, turkiy, jumladan, o'zbek lingvomadaniyatiga xos o'zgachalikning bir ifodasi.

*Beko'g'libek* tuzilishi jihatdan qo'shma tarkibli antroponimlar guruhiga mansub bo'lib, *bek*, *o'g'li* va *bek* morfemalaridan tarkib topgan. Antroponimi *beklar avlodiga mansub bek bola* ma'nosini anglatadi.

*To'rajonto'ra* ham qo'shma tarkibli antroponim bo'lib, *to'ra*, *jon* va *to'ra* so'zining takroridan yasalgan. Ismga lug'aviy asos bo'lgan va takror qo'llangan *to'ra* so'zi ism tarkibida "oliy toifaga mansub, xon, podshoh farzandi; shohzoda, podshoh o'g'li; yo'l boshchi, hokim, mansabdor, ulug' martabali" ma'nolarida, *ruh*, *tiriklik*, *hayot* semalarini ifodalovchi *jon* esa *hurmat*, *ehtirom*, *erkalash*, *suyish* ma'nolarida qo'llangan<sup>26</sup>. Demak, *To'rajonto'ra* antroponimi *to'ralar avlodiga mansub hurmatli, ehtiromli, suyimli mansabdor, ulug' martabali* ma'nosini anglatadi. Fikrlarimizni uning nasl-nasabi, amali va otasining unvonlari ham tasdiqlaydi.

Dissertatsiyada *Jomador*, *Kinasarixon*, *Mirzod*, *Cho'libek Qulika Sulton Ilik // Sulton Elik*, *Tug'di*, *Yakkamehr*, *Cho'tan*, *Bechora*, *Og'uy*, *Olishbiy*, *Cho'bin* kabi noyob ismlar tahlili ham berilgan.

Dissertatsiyaning "**Tarixiy laqablarning lingvokulturologik tahlili**" nomli 3-bobida davrga xos laqablar va ularning turlari, lug'aviy asoslari tahlili berildi. Bobning 1-bo'limida "**Qo'qon xonligi manbalaridagi tarixiy laqablarning lingvomadaniy va leksik-semantik xususiyatlari**" yoritilgan.

Laqablar – qadimiy va tarixiy antroponimik birlik sifatida barcha xalqlarda mavjud. Biz E.Begmatovning tasnifiga, boshqa tadqiqotlarning yutuqlariga tayangan holda, Qo'qon xonligi antroponimiyasiga mansub laqablarni quyidagicha tasniflashni lozim topdik:

**1. Asliy laqablar.** Tilda laqab sifatida yuzaga kelgan nomlar **asliy laqablardir**. Hozirgi o'zbek tilidagi laqablarning aksariyati asliy laqablardir<sup>27</sup>. Bunday laqablar ism bilan birga emas, mustaqil qo'llanganda ismlar vazifasiga yaqin turadi va xuddi shaxsning asosiy ismi kabi iste'molda bo'ladi. M., *Mingoyim* – asl va to'liq ismi *Faxriniso bint Imomqulibek Do'stqulibek o'g'li bahodir* bo'lgan, Norbo'tabiyning xotini, Qo'qon xonlari – Olimxon va Umarxonlarning onasining laqabi. U ming qabilasidan bo'lganligi sababli xalq tomonidan shunday laqab berilgan. Qo'qon tarixiga oid barcha manbalarda *Mingoyim* deb tilga olingan: *Uch o'g'ulning nomlari bulardur, Olimxon, Umarxon (bu ikki birodar bir onadin) mingiya jamoadinkim, nomini Mingoyim deyduklar*<sup>28</sup>.

*Otaliqxon* – Qo'qon xoni Olimxonning o'g'li, asl ismi Ibrohimxon,

*Qiron* – Qo'qon xoni Nizomiddin Muhammad Abdurahimbiyning laqabi.

<sup>26</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 5-ж. – Б. 578.

<sup>27</sup> Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 57-61.

<sup>28</sup> Мирзо Олим Маҳдум хожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 60.

*Norbo‘tabiy* – Qo‘qon xonligi tarixida eng uzoq, ya’ni 36 yil hukmronlik qilgan podsho, amir Olimxon va amir Umarxonlarning otasi Abdulhamidbekning laqabi. Laqab “erkak va shujo”, ya’ni “shijoatli” ma’nosini anglatadi.

Tarixiy antroponimiyada egasining ismiga ohangdosh laqablar ham uchraydi. M., *Olimxon – Zolimxon* (Qo‘qon xoni amir Olimxonning laqabi).

**2. Nisbiy laqablar.** Tarixan shaxs ismiga qo‘shilib, mansab, unvon, sulolas, urug‘, qabila, ijtimoiy-siyosiy titul, kasb-korni ifoda etuvchi nomlar nisbiy laqablardir. Mohiyatan bunday laqablar ham shaxsni o‘zgalardan farqlashga xizmat qiladi. Bunday nomlar tarixiy asarlarda saqlanib, bizgacha yetib kelgan. M., *Bahodirxoja dasturxonchi, Karimquli dasturxonchi, Mahmud dasturxonchi, Muhammadsobir dasturxonchi, Sayyid Ali dasturxonchi* kabi. Bu shaxslar xonning dasturxoniga, oshxonasiga javobgar amaldorlar bo‘lgan. Xonlikda dasturxonchi lavozimini bajargan.

*Abdulkarim chopuqchi, Sayyid buqchabardor* (Umarxon davrida xizmat qilgan amaldorlar). (Umarxonga xizmat qilgan nadimlardan biri). *Chopuqchi / pichoqchi* – xon saroyidagi qurol-aslaha ustasi, qo‘rchi. *Buqchabardor / buqchador / buxchador* – saroydagi barcha hadiya va tuhfa, sarpolarga mutasaddiy amaldor<sup>29</sup>.

Qo‘qon xonligiga doir manbalardan to‘plangan laqablarni mavzuviy jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

**I. Shaxsning jismoniy kamchiliklari motiv bo‘lgan laqablar.** Bunday laqablar shaxsning nutq, eshitish, ko‘rish organidagi nuqsonlar, kamchiliklar jismoniy ko‘rinishi, qomatidagi ba’zi xususiyat va belgilar hamda boshqa jismoniy qusurlar motivatsiyasi asosida yuzaga keladi. M., *Muhammadnazarbek soqov* (Muhammadnazarbek ibn Irisqulibek ming) – Muhammadalixon onasining tog‘asi. Sheralixonning bekalaridan, mingiya sardorlaridan, parvonachi, qushbegi), *Muhammadnazar quloq boturboshi* (Sheralixon davrida (1842-1844) To‘raqo‘rg‘on hokimi bo‘lgan), *Ko‘r Yusuf Namangoniy* (Umarxon, Muhammadalixon davridagi hofizlardan), *Ko‘r Qo‘ldosh* (Mallabek tarafdin Xudoyorxoniga kelgan elchi), *Ernazar itbosh* (Abdurahmonbiy ibn Abdulkarimbiy xizmatidagi amirlardan), *Kal Azamatboy, Shodi kal // Kal Shohi Marg‘inoniy / Shohiy / Shodi mingboshi* (Qo‘qon xonligi mingboshisi), *Ismoil kalla, Muhammadkarim kalla, Musulmonqul cho‘loq* kabi.

**II. Kishining xarakteri va harakatidagi tipik xususiyatlarga ishora qiladigan laqablar.** Bu guruh laqablar rang-barang bo‘lib, shaxsning salbiy yoki ijobiy xarakteri, yurish-turishi, muomalasidagi eng nozik va qo‘pol xususiyatlarni ifodalaydi. M., *Ibrohim jinni, Yunuxoja bangi, Xidir o‘g‘ri* kabi.

**III. Shaxsning kasb-kori, mehnat malakasi bilan bog‘liq nisbiy laqablar.** Kasb-kor ifodalovchi laqablar odamlarning ruhiy va jismoniy kamchiligini bildiruvchi laqablardan nozik ma’no qirralari bilan farqlanadi, ya’ni shaxsning ruhiy va jismoniy kamchiligini bildiruvchi laqablarda ko‘proq shaxslarni kamsitish, ustidan kulish, ularni masxaralash ma’nolari mavjud bo‘lsa, kasb-mashg‘ulot bilan bog‘liq laqablarda odamlarni maqtash, e’tirof etish, ulardan faxrlanish kabi ma’nolar aks etadi: *Usta Pirnazar to‘prez, Usta Buxoriy gilkor,*

<sup>29</sup> Мухаммадхакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 352.

*Mingsher xazinachi, Xalil xazinachi, Xoja Muhammadbiy o'qchi, Hoji Maqsud to'pchi, Hotamquli parvonachi* kabi.

Bir qator laqablar kishilarning musiqa san'ati bobidagi faoliyati hamda malakalari ifodasi sifatida paydo bo'lgan: *Sherdil amir bu xabarni eshitib, Hofiz Quvvat va Muhammadsharif surnaychiga ertalabgacha xush xonish aylab, nag'masaroylik qilishlarini buyurdi.* (Ibr.xavoqin, 72)

**IV. Shaxslarning millati, qabila, urug'i nomi motiv bo'lgan laqablar.** Xonlikda bir qancha urug', millat vakillari faoliyat yuritgan. Ularning ayrimlari shu xarakterli jihatiga nisbat berish asosida laqab olgan: *Qanbar qipchoq* (Qo'qon xoni Olimxonni otib o'ldirgan shaxs), *Abdulla afg'on* (Ansob., 35), *Jomador Afg'on* (Ibr.xavoqin, 267), *Mo'minxo'ja tojik* (T.Turkiston, 108), *Sodiqbiy yuz* (Muntaxab., 233), *Mullo Xolbek qipchoq* (Ibr.xavoqin, 174), *Normuhammad qipchoq* (Ibr.xavoqin, 174), *Ummatbiy qoraqalpoq* (T.jahonnamoyi, 97), *Rahmatulloh dodxoh ming* (Ibr.xavoqin, 175), *Po'lod qirg'iz* (Ibr.xavoqin, 336), *Olimbek qirg'iz* (Ansob., 100) kabi.

**V. Kishilarning yashash joyi, geografik hududi motiv bo'lgan laqablar:** *Eson isfaralik* (Olimbek qirg'izning katta o'g'li), *Yunus tog'liq* (Sheralixon beklaridan) kabi.

Juda ko'p laqablar tuzilishiga ko'ra qo'shma va murakkab tarkibli, aynan bir shaxsning bir necha laqablaridan iborat bo'ladi. Bu bir shaxsga millati yoki qabilasi, mansabi, amali yoki unvoniga ko'ra laqab berilganligi bilan bog'liq. M., *Boybo'ta bahodir qalmoq, Davron dodxoh tojik-bahodirboshi, Do'st yasovul tojik, Do'stmuhammad eshik og'osi qoraqalpoq, Mullo To'ychi dodxoh qirg'iz* kabi.

Bobning "**Mansab va unvonlarga nisbat berilgan tarixiy laqablar tahlili**" nomli 2-bo'limida xonlikda mavjud mansab va unvonlar bilan bog'liq qo'shimcha antroponimik birliklarning lingvokulturologik va sotsiologik xususiyatlari yoritilgan.

Qo'qon xonligi davri antroponimiyasida mansab va unvonlarga nisbat berilgan tarixiy laqablar salmoqli o'rin tutadi. Xonlik boshqaruviga doir ilmiy manbalarda xonlikdagi mansab va unvonlar *harbiy-ma'muriy, saroy, diniy* turlarga, ular o'z ichida *oliy darajali, o'rta darajali, past darajali* guruhlariga ajratiladi va tavsiflanadi<sup>30</sup>. Dissertatsiyada bu turkumga mansub laqablar ana shu guruhlanish asosida tahlil qilindi.

**Harbiy-ma'muriy mansab va unvonlarga nisbat berilgan laqablar:**

**1. Oliy darajali harbiy-ma'muriy mansab va unvonlarga nisbat berilgan laqablarga** *mingboshi, amirlashkar, qushbegi, botirboshi, noib, qal'abon, qo'rboshi, yovar, to'pchiboshi, ponsodboshi* kabi so'zlar lug'aviy asos bo'lgan. M., *Otaqul bahodirboshi // botirboshi* (Xudoyorxon zamonida), *Xudoyor yovar* (Sheralixon davrida yashagan beklardan) kabi.

**2. O'rta darajali harbiy-ma'muriy mansab va unvonlarga nisbat berilgan laqablarga** *yuzboshi, ellikboshi, qorovulbegi* kabi so'zlar lug'aviy asos bo'lgan. M., *Berdiali yuzboshi* (Sheralixon davrida yashagan beklardan), *Mirolim yuzboshi* (Sheralixon davrida), *Abdulxoliq qorovulbegi* (Umarxon davrida), *Oxun qorovulbegi Ibrohim dodxoh o'g'li* kabi.

<sup>30</sup> Қаранг. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 6-21.

**3. Past darajali harbiy-ma'muriy mansab va unvonlarga nisbat berilgan laqablarga** *mergan, mahram, botur // bahodir, to'pchi* kabi so'zlar lug'aviy asos bo'lgan. M., *Muhammadsharif mergan, Irisqulibek ibn Do'stquli bahodir* (Norbo'tabiy davrida), *Imomqulibiy ibn Do'stqul bahodir* (Irisqulibekning ukasi, Qo'qon xoni Norbo'tabiyning qaynotasi) kabi.

**I. Saroy mansab va unvonlariga nisbat berilgan laqablar.** Odatda, saroyga xos mansab va unvonlarga nisbat berilgan laqablar quyidagicha guruhlanadi:

**1. Oliy darajadagi saroy mansab va unvonlariga nisbat beruvchi laqablar.** Bunday laqablarga *otaliq, beklarbegi, biy, devonbegi, xazinachi, inoq, eshikog'asi, parvonachi, dodxoh, dasturxonchi, sarkor, sharbatdor, oftobachi, tunqator, qushbegi, hidoyatchi* kabi so'zlar lug'aviy asos bo'lgan. M., *Mahmud otaliq, Bobo devonbegi* (Qo'qon xoni Norbo'tabiy davrida O'ratepa hokimi), *Sayyidquli beklarbegi, Mingsher xazinachi* (Xudoyorxon davrida) kabi.

**2. O'rta darajali saroy mansab va unvonlariga nisbat beruvchi laqablar.** Bunday laqablarga *kitobdor, risolachi, bakovul, mirzaboshi, sarmunshi, mehtar, zakotchi, miroxo'r, shig'ovul, mirob, dorug'aboshi* kabi mansab va unvon nomlari lug'aviy asos bo'lgan. M., *Bozorquli mehtar, Abdurasul zakotchi, Mullo Azim mirzaboshi, Siddiq tunqotar* kabi.

**3. Past darajali saroy mansab va unvonlariga nisbat beruvchi laqablar.** Bu turdagi laqablarga *salomog'asi, mirzo, ja'mog'a, munshi, surnaychi, karnaychi* kabi so'zlar lug'aviy asos bo'lgan. M., *G'ofirboy mirzo munshiy, Mullo Yunusjon munshiy*. (Xudoyorxon davrida) kabi.

**II. Diniy mansab va unvonlarga nisbat berilgan laqablar.** Bu turkumdagi laqablarni E.Begmatov nisbiy laqablar guruhiga kiritgan va "Diniy ma'noli nisbiy laqablar" deb atagan hamda ular sirasiga *vali, mulla, domla, mufti, maxsum // maqsum, maxzum, maxdum, mutavali, oxun // oxund, pir, so'fi, xo'ja, xalifa, eshon, shayx, qora, hoji* kabi faxriy unvonlarni kiritgan<sup>31</sup>. Bizningcha, bu laqablar guruhiga kiritilgan *eshon, sayid* kabi birliklar tabaqaga nisbat beruvchi laqablar sirasiga mansubdir.

Diniy mansab va unvonlarga nisbat berilgan laqablarni quyidagicha guruhlash maqsadga muvofiq:

**1. Oliy darajali diniy mansab va unvonlarga nisbat berilgan laqablar.** Bunday laqablarga *shayxulislom, xoja kalon, qozi ul-quzzot, qozi kalon, qozi mutloq, qozi askar, qozi rais, qozi jilov, muftiy, a'lam* kabi so'zlar lug'aviy asos bo'lgan. M., *Hazrati Sulaymonxo'ja shayxulislom, Ma'sumxon shayxulislom, Xudoynazar amin, To'raxoja xojayi kalon* kabi.

**2. O'rta darajali diniy mansab va unvonlarga nisbat berilgan laqablar:** *oxun, sudur, naqib, mudarris, imom, imom xatib, muazzin, so'fi jilov, mutavalli, o'roq* kabi so'zlar lug'aviy asos bo'lgan. M., *Mullo Bozor Oxund/domla Bozor* (mashhur shayx), *Amonullohxo'ja sudur* (sudur – vaqf mulklarining daromadlariga va hisob-kitobiga javobgar kishi), *Mahmudxo'ja jilav, Shodmonxo'ja Toshkandiy o'roq* (Qo'qon davlatining harbiy va siyosiy arbobi) kabi.

Amal, mansab va unvonga nisbat berilgan laqablar quyidagi lingvokulturologik va sotsiologik xususiyatlari hamda vazifalari bilan tavsiflanadi:

<sup>31</sup> Begmatov Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 68.

1. Mustaqil va ism bilan birga qo‘llanib, muayyan shaxsning mansabi, unvoniga nisbat berish asosida atagan, uning mansabi hamda unvonini ta’kidlab ko‘rsatgan. Asosan, shaxslarning mansabi, amali va unvoni bilan bog‘liq ijobiy ma’nomalar ifodalagan.

2. Shaxsni boshqa, xususan, shunday mansab, lavozim va unvonli kishilardan farqlashga xizmat qilgan. Ikki ismdosh (adash) shaxslarni ham bir-biridan mansab, lavozim va unvoni asosida farqlash vazifasini bajargan.

3. Shaxslarning mansabi, amali yoki unvoniga ishora qilgan, jamiyatdagi, xususan, xonlik, ya’ni davlatdagi ijtimoiy mavqeyini ifodalagan.

4. Tarixiy laqablarning bu turi muayyan avlod, oilaga oid bo‘lib, avloddan avlodga, otadan bolaga o‘tgan, sulolaviy va shajaraviy davomiylik, izdoshlik, aloqadorlik hamda bog‘liqlikni ifodalagan.

5. Tarixga, muayyan davrga, xususan, Qo‘qon xonligiga xos mansab, amal va unvonlar hamda bularga ega bo‘lgan shaxslarning jamiyatdagi, davlat boshqaruvidagi mavqeyi, vazifasi hamda darajasini bildirgan, davrlar davomida shunday ma’lumotlarni ifodalagan.

6. Xonliklar, jumladan, Qo‘qon xonligida ham shaxslarning faoliyati, xizmati, davlat va xonga sadoqati, fidoyiligi lavozimini ko‘tarish, ularga mansab va unvonlar berish asosida rag‘batlantirilgan, imtiyozlar in’om etilgan. Shu jihatdan shaxslarning mansab va unvoniga nisbat beruvchi laqablar muayyan kishilarga xos “faxriy nom” sifatida ularni hurmatlash, e’zozlash va rag‘batlantirish vazifasini bajargan. Shu jihatdan unvon ifodalovchi laqablar davrga doir ijtimoiy tabaqalanishni ham ifoda etgan.

7. Unvon ifodalovchi laqablar tuzilish jihatidan qo‘shma tarkibli, asosan, *ism + mansab nomi*, *ism + unvon nomi*, *mansab nomi + ism*, *unvon nomi + ism* modelida bo‘lib, asosan, ismlar bilan birga qo‘llangan.

Shaxsning mansabi, unvoni, mazhabi va etnik mansubligiga ishora qiluvchi tarixiy laqablar, asosan, ismlar bilan qo‘llanib, lisoniy jihatdan tilimizning keyingi taraqqiyotida, xususan, sho‘rolar davrida rus tili ta’sirida paydo bo‘lgan hozirgi familiya vazifasini bajargan, ayrimlari avloddan avlodga, otadan bolaga o‘tgan, davrga xos tarixiy reallikni ifodalashi bilan sotsiolingvistik mohiyat kasb etgan. Bunday laqablar rasmiy muloqotda, idoraviy hujjatlarda murojaat shakli sifatida faol qo‘llangan, “faxriy nom” sifatida kishilarni ulug‘lash, e’zozlash, hurmatlash, rag‘batlantirish vazifalarini bajarish kabi lingvokulturologik vazifalarni bajargan.

## XULOSA

1. Qo‘qon xonligiga doir tarixnavislik asarlari davr antroponimiyasining noyob manbasidir. Xonlikka doir ismlar, laqablar, taxalluslar va boshqa antroponimik birliklar o‘zbek tili tarixiy antroponimiyasining uzviy bir qismi sifatida hukmdorlar sulolasi, shajarasi, etnik, jinsiy mansubligi, o‘tmishi, lavozimi, unvoni va darajasi xususida ensiklopedik ma’lumotlarni ifodalash bilan atash (nominativ), farqlash (differentsiatsiya), indikator (aniqlovchi, ko‘rsatkich), mafkuraviy, genderologik, milliy-madaniy vazifalarni bajaradi.

2. Qo‘qon xonligi antroponimiyasining asosini tarixnavislik asarlari vositasida bizgacha yetib kelgan hukmdorlar, amaldorlar va ularning oilalari, xususan, xotinlari hamda farzandlarining ism va laqablari tashkil etadi, hukmdorlarning sulolasi, shajarasi haqida yorqin tasavvurlar beradi.

3. Xonlik sulolasiga mansub hukmdorlarni ifodalovchi antroponimik birliklar, asosan, ism-laqablar lug'aviy jihatdan *biy // bek, xon, amir* kabi unvon, lavozim va *sayyid* ijtimoiy-siyosiy tabaqa nomlari asosida shakllangan bo'lib, xonlarning ismi, shajaraviy, tabaqaviy mansubligi, unvoni, lavozimi xususidagi axborotlarni ifodalaydi.

4. Tarixiy asarlarda davr va milliy hamda diniy an'analar ta'sirida ayollarning ismlari, laqab va taxalluslari kam qo'llangan. Shu boisdan ayollarga xos tarixiy antroponimlar deyarli to'planmagan va kam tadqiq etilgan.

5. Qo'qon xonligi tarixnavisligi manbalarida ham faqat xonlar sulolasiga mansub ayollarning ism, laqab va taxalluslari qo'llangan. Ularning miqdori ham oz, 50 tani tashkil etadi. Bu davrga xos ayollarning ismlari leksik-semantik, nominatsion-motivatsion jihatdan sohibiga xos jinsiy, tabaqaviy mansublik, oliynasablik va go'zallikni yorqin ifoda etgan.

6. Ayollarga xos ism va laqablar tarkibida *oyim, xonim, zoda* kabi tarixiy antroponimik indikatorlar va formantlar qo'llanishi jihatidan qo'shma tarkibli bo'lib, *ism + antroponimik indikator, ism + antroponimik indikator +ota ism, ism + nasab, ism + laqab* modelida shakllangan hamda iste'molda bo'lgan.

7. Davr antroponimiyasi tarixiy-etimologik jihatdan turkiy, arabiy qatlamga mansub bo'lib, ularga sof turkiy va arabcha lug'aviy birliklar asos bo'lgan. Nominatsion-motivatsion jihatdan esa ismlar tarixiy, milliy va diniy an'analar hamda hukmron tabaqa talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, diniy, tasviriy ismlarga bo'linadi.

8. Hukmdorlarning etnik jihatdan bir urug'ga, oilaviy jihatdan aynan bir sulolaga mansubligi, qarindoshligi, ijtimoiy-tabaqaviy aloqadorligi, lavozim va unvonlarining mushtarakligi kabi omillar mahsuli sifatida davr antroponimiyasida uyqash ismlar, ism-laqablar asosiy o'rin tutadi.

9. Turkiy, jumladan, o'zbek tili tarixiga xos ijtimoiy-siyosiy terminologiyadagi sinonimiya ta'sirida davr antroponimiyasida, xususan, xonlar va xonzodalarning ismlari hamda laqablarida leksik variantdorlik kuzatiladi. Buning natijasida aynan bir ism yoki laqab tarixiy manbalarda turli variantlarda qo'llangan.

10. Xonlikka mansub hukmdorlarning ism hamda laqablari og'zaki nutqda, rasmiy-idoraviy yozishmalarda, tarixiy manbalarda lavozim va mansabga xos dabdaba, oliynasablik, hurmat-ehtiram, ulug'lash ifodasi sifatida ijtimoiy-tabaqaviy mansublik, unvon, lavozim, mansab nomlari hamda otasim bilan birgalikda qo'llangan. Shu jihatdan davr antroponimiyasida qo'shma tarkibli antroponimlar salmoqli o'rin tutadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КОКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**КОКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**ХАЛИЛОВА НИЛУФАР БАХРОМОВНА**

**СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ  
ИЗУЧЕНИЕ АНТРОПОНИМОВ В ИСТОЧНИКАХ ПО ИСТОРИИ  
КОКАНДСКОГО ХАНСТВА**

**10.00.01 – Узбекский язык**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

**Коканд – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей Аттестационной Комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.2.PhD/Fil 3311.**

Диссертация выполнена в Кокандском государственном педагогическом институте.  
Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Кокандском государственном педагогическом институте ([www.kspi.uz](http://www.kspi.uz)) и на информационно-образовательном портале “Ziyonet” ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** Улуков Носиржон Мухаммадалиевич  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Азимов Иномжон Мамасодикович,  
доктор филологических наук, доцент

Худойберганов Равшан Юсупович,  
кандидат филологических наук, доцент

**Ведущая организация:** Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 по присуждению ученых степеней при Кокандском государственном педагогическом институте «\_\_\_»\_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_\_ час. Адрес: 150700, г.Коканд, ул.Турон, 23. Тел.: (99873) 542-38-38; факс: (99873) 542-11-43; e-mail: [quqondpi@umail.uz](mailto:quqondpi@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Кокандского государственного педагогического института (зарегистрирована за №\_\_\_\_). Адрес: 150700, г.Коканд, ул. Турон, 23. Тел: (99890) 508-64-42; e-mail: [qdpi\\_arm@umail.uz](mailto:qdpi_arm@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «\_\_»\_\_\_\_\_2025 года.  
(Реестр протокола рассылки №\_\_\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.)

**М.Х.Хакимов**  
Председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор фил.наук, профессор

**А.Х.Тураходжаева**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
канд.фил.наук, доцент

**Д.М.Жамолиддинова**  
Председатель научного семинара  
при Научном совете  
по присуждению ученых степеней,  
доктор фил.наук, (DSc) профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мировой науке такие антропонимические единицы, как имена, прозвища, фамилии, отчества, псевдонимы, являющиеся составной частью памяти, культуры, духовности, а также социального образа жизни народа всегда были достаточным материалом для языкознания, истории, социологии, социолингвистики, этнографии, этнолингвистики, психологии, психолингвистики, лингвокультурологии, и в настоящее время они являются источником новых исследований. В современной науке развивается антропоцентрический, социолингвистический, этнолингвистический, лингвокультурный подход к изучению антропонимов.

В мировой ономастике лексико-семантические, хронологические, структурные, деривационные аспекты антропонимических единиц считаются одной из центральных проблем исследования в современной антропоцентрической парадигме. В частности, изучение исторических антропонимических единиц имеет важное научно-теоретическое и практическое содержание с точки зрения возможности проследить развитие ономастического, в частности, антропонимического макромасштабного, национального, формального, духовного и функционального совершенствования.

В узбекском языкознании, в частности, в ономастике, проводятся исследования языковых функций, историко-этимологических пластов, номинативно-мотивационных, лексических основ, вариантов, форм, способов и моделей антропонимических единиц, но изучение исторических антропонимов в социолингвистическом и лингвокультурологическом аспектах является одной из актуальных задач. Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев, «...сохранение и развитие редких образцов национального творчества, их беспрепятственная передача будущим поколениям является обязанностью дальновидных ученых и творческих деятелей мира, государственных и общественных деятелей, все это благородный долг людей культуры»<sup>1</sup>. Эти мысли, конечно же, применимы и к научным исследованиям, проводимым в узбекском языкознании. Большие перемены, происходящие в нашей стране, особое внимание, уделяемое сфере науки, ставят задачу создания исследований, соответствующих принципам современного мирового развития, для узбекского языкознания и социолингвистики, развивающихся во взаимодействии с другими областями. Одной из таких задач является изучение исторической антропонимики узбекского языка в социолингвистическом и лингвокультурологическом аспектах.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан: Указ Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 г. «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Указ Президента Республики Узбекистан № УП-

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019, 7 апрель. № 68 (7298).

5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6084 от 20 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4851 от 6 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования в области информационных технологий, развитию и интеграции научных исследований с IT-индустрией», а также в других нормативно-правовых документах Республики Узбекистан, касающихся данной сферы деятельности.

**Соответствие исследований приоритетам развития науки и техники республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** В мировом языкознании, в тюркологии, в том числе узбекском языкознании, исследованы лексико-семантический и методологический, мотивационно-номинативный, сравнительно-исторический, историко-этимологический пласты исторических антропонимов. Особое значение имеют диссертации и другие исследования таких ученых, как А. В. Суперанская, М. М. Гинатулин, В. Г. Наумов, Н. В. Данилина, Ю. Ю. Гордова<sup>2</sup> об антропонимах в русском языкознании.

В исследование системы имен собственных в узбекском языкознании, в том числе в сбор антропонимов, изучение лексико-семантических, структурных, этнографо-мотивационных особенностей свой достойный вклад внесли ученые Э.Бегматов, Н.Хусанов, Г.Сатторов, С.Рахимов, И. Худойназаров, Р. Худойберганов<sup>3</sup>. Составлены орфографические и толковые словари узбекских имен<sup>4</sup>. Н. Хусанов в своей монографии изучил

---

<sup>2</sup>Суслова А.В., Суперанская А.В. О русских именах. – Лениздат, 1991. – 217 с.; Гинатулин М.М. К исследованию мотивации лексических единиц. – Алма-Ата, 1973. – 27 с.; Наумов В.Г. Явления мотивации в системе диалекта (лексикологический аспект). – Томск, 1985. – 17 с.; Данилина Н.В. Нижегородская антропонимия XIV-XVII веков. – Горький, 1986. – 24 с.; Гордова Ю.Ю. Лингвистические проблемы региональной ономастики в исторической перспективе (на материале Рязанской топонимии и антропонимии): Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – М., 2018. – 42 с.; Социолингвистический аспект имени собственного. – М., 1984; Вопросы ономастики. Вып. 2. – Алматы, 2004.

<sup>3</sup>Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 28 с.; Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 263 б.; Исмларнинг сирли олами. – Тошкент: O'zbekiston, 2014. – 176 б.; Хусанов Н.А. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидagi антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент, 2000; Сатторов Ф. Ўзбек исмлари туркий қатлами: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Рахимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 26 б.; Худойберганов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.

лексико-семантические и методологические особенности антропонимов в письменных узбекских литературных памятниках XV века<sup>5</sup>. В последние годы Н.А. Муминова исследует лексико-семантические особенности<sup>6</sup>, антропонимики периода Тимуридов, однако исторические и региональные, территориальные формы антропонимов, в том числе антропонимика исторических источников Кокандского ханства, в виде монографии не исследованы.

**Связь исследования с научными планами вуза, в котором выполнена диссертация.** Исследование проведено в соответствии с планом НИР кафедры узбекского языкознания Кокандского государственного педагогического института.

**Цель исследования** – изучение социолингвистических и лингвокультурологических особенностей антропонимики Кокандского ханства.

**Задачи исследования:**

сбор и классификация антропонимических единиц в исторических источниках Кокандского ханства;

выявление языковых функций исторических антропонимических единиц на основе фактических данных;

раскрытие социолингвистических и лингвокультурологических аспектов имен и прозвищ, связанных с национальными обычаями, традициями, религиозными верованиями, социальными классами;

выявление социолингвистических и лингвокультурологических характеристик имен и прозвищ ханов и потомков хана на основе лексико-семантического, номинативно-мотивационного анализа;

лексико-семантическая, номинативно-мотивационная классификация исторических прозвищ;

раскрытие социолингвистических и лингвокультурологических аспектов исторических прозвищ, связанных с социально-политическими, национально-культурными факторами.

В качестве **объекта исследования** взяты антропонимические единицы, собранные из исторических источников о Кокандском ханстве.

**Предметом исследования** являются социолингвистические и лингвокультурные характеристики исторических региональных антропонимов в исторических источниках Кокандского ханства.

**Методы исследования.** Для уточнения темы исследования используются лингвистическое описание, лексико-семантический, сравнительно-исторический, этимологический, структурный, статистический, типологически-классификационный, социолингвистический и лингвокультурологический методы анализа.

**Научная новизна исследования** заключается в следующем:

исторические антропонимы представляют собой ценную историческую, этнографическую, этико-эстетическую, религиозно-мифологическую

---

<sup>4</sup>Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – 604 б.

<sup>5</sup>Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 22.

<sup>6</sup>Муминова Н.А. Темурийлар даври антропонимиясининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. – Қарши, 2021. – 144 б.

